

# **O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN ASALARICHILIK ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Asalarichilik asoslari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me'yoriy asoslar**

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Asalarichilik asoslari**

1. Asalarichilik asoslari;
2. Asalari oilalarining biologiyasi va ularni saqlash hamda ko'paytirish texnologiyasi;
3. Asalarilarning ozuqa manbalari;
4. Asalarichilik xo'jaliklarida bajariladigan mavsumiy ishlar;
5. Asalarichilikda naslchilik ishlari;
6. Asalarilar yordamida o'simliklarni changlatish.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

| T/ r | Mazmun sohalar                                                                      | Konstruktlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | Ulushi (%) | Testlar soni |
|------|-------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|--------------|
| 1    | Asalarichilik asoslari                                                              | Propolis tarkibidagi makro va mikro elementlar, fermentlar va biologik faol moddalar, propolisning asalarichilikdagi ahamiyati, zahar tarkibi va xususiyatlari, eng samarali zahar olish usullari, zaharni yig'ish sharoitlari va uskunalar, asalarining turlari: ona ari, ishchi ari, erkak ari, Uyaning asosiy qismlari bilishi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | 5 %        | 2 ta         |
| 2    | Asalari oilalarining biologiyasi va ularni saqlash hamda ko'paytirish texnologiyasi | Ona arining biologiyasi: Uzunligi va og'irligi me'yorlari, qorin halqachalari soni, tuxum naychalari soni, ishchi arisiz yashash muddati, tuxum qo'yishni boshlash davri. Ishchi arilar: Tanasining o'rtacha uzunligi va og'irligi qorin halqachalari soni. Uyaning dastlabki ishlari (tozalash, issiqlikni saqlash) Himoya vazifalari Erkak arilar (trutni). Biologik tuzilishi, Ishchi arilarga nisbatan og'irligi, Koloniyadagi vazifasi, Arilarning funksional bo'linishi: Yosh bo'yicha vazifalar taqsimoti, Qidiruvchi (razvedkachi) arilar signallari, Ari uyasi tuzilishi va romlar: Yotoq uyaga nechta rom joylashishi, Ikki qavatli uyada rom miqdori, mum tortish jarayonlarini bilishi | 32,5 %     | 13 ta        |
| 3    | Asalarilarning ozuqa manbalari                                                      | Asal va sharbat manbalari: O'simliklarning nektarlik darajasi, Ozuqa turi bo'yicha manbalar Shakar sharbati tayyorlash: Sovitish harorati me'yori, Shakar ulushi foizi, Kuzgi oziqlantirish uchun retseptlar. Xamirsimon oziq: Tog' asali va qand nisbati, Tayyorlash usuli. Kobalt qo'shiladigan sharbat: Kobaltning ari oilasiga ta'siri, Kuchsiz oilalarni mustahkamlashdagi rolini bilishi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | 12,5 %     | 5 ta         |
| 4    | Asalarichilik xo'jaliklarida bajariladigan mavsumiy ishlar                          | Bahorgi tekshiruv: Qachon o'tkaziladi, Ob-havo talablari, Uyaning ichki holatini baholash, Uya tag qismini tozalash: Sababi va ahamiyati, Tozalash vaqti. Koloniya kengaytirilishi: Ichki hajmni qachon oshirish, Rom qo'shish qoidalari, Ko'chirish (perenos), Romlar orasiga qo'yiladigan ponalar o'lchami, Ko'ch paytida silkinishni kamaytirish usullari, Qishlashga tayyorlash: Zarur oziq miqdori, Uyani yopish va shamollatish malakasiga ega bo'lishi.                                                                                                                                                                                                                                     | 25 %       | 10 ta        |

|   |                                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |        |      |
|---|------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|------|
| 5 | Asalarichilikda naslchilik ishlari             | Zotlar haqida umumiy ma'lumot: Aborigen zotlar ta'rifi, Italiyan, Ukraina cho'l, O'rta rus zotining xususiyatlari. Ona arining naslchilik funksiyasi: Tuxum qo'yish boshlanishi, Bir sutkada qo'yiladigan tuxum soni, Nasl sifatiga ta'sir etuvchi omillar, Zotlarning biologik ko'rsatkichlari, Og'irlik me'yorlari, Rang xususiyatlari, Moslashuv darajasi, mahalliy zotlarning belgilari: Rangi, Iqlimga mosligini bilishi | 17,5 % | 7 ta |
| 6 | Asalarilar yordamida o'simliklarni changlatish | Changlatishga muhtoj o'simliklar: O'simliklarning necha foizi hasharotlar orqali changlanadi, Asalarilarning changlatishdagi ulushi, Hosildorlikni oshirishdagi roli: G'o'za hosili oshish foizi, Beda hosili oshishi (olimlar ma'lumotiga ko'ra) Chang tashish mexanizmi: Arilarning chang yig'ish xususiyatlari, Changni o'simliklarga qayta yetkazish mexanizmlari bilishi lozim.                                          | 7,5 %  | 3 ta |

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

| T/r | Kognitiv daraja | Izohi                                                                                                                                                                 | Ulushi (%) |
|-----|-----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 1.  | Bilish          | Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish                                                        | 17,5       |
| 2.  | Qo'llash        | O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish                       | 67,5       |
| 3.  | Mulohaza qilish | Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish | 15         |

#### VI. Test turlari va taqsimoti

| T/r | Test turi | Izohi                                                                                                |
|-----|-----------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | Y1        | To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test                                |
| 2.  | Y2        | Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test |
| 3.  | Y3        | Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test                                                           |
| 4.  | Y4        | Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test               |

#### VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

### **VIII. Imtihon tartibi**

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

### **IX. Inklyuziya va moslashtirish**

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

### **X. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. B.A. Qaxramonov, A.I. Isamuhamedov - Asalarichilik asoslari Toshkent 2016 y.

2. B.A. Qaxramonov, X.A.Donaev,A.I. Isamuhamedov, F.Ye.Safarova - Asalarichilik asoslari Toshkent: "Xalq nashriyoti" 2022 y.

3. D.R.Jo'rayeva - Asalarichilik(100 kitob to'plamiAgrobank 86-kitob) Tasvir 2021y.

4. Isamuxammedov A.I., Nikadanbaev N.K, Asalarichilikni rivojlantirish asoslari-Toshkent: "Sharq",2013.

5. Qaxramonov B.A., Safarova F.Ye., Isamuxammedov S.Sh., Donaev X.A., Ergashev X.B. Asalarichilik asoslari. Toshkent- 2021